

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTI YANGI JANRLARINING SHAKLLANISHIDA JADID ADABIYOTINING AHAMIYATI

**Xolmurodova Dilafruz G'ofur qizi**

Osiyo Texnologiyalar Universiteti, O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Murojat uchun tel: +998918103898

[dilafruzteacher2108@gmail.com](mailto:dilafruzteacher2108@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22951875>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan janriy yangiliklar hamda ularning shakllanishida jadid adabiyotining tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, she'riyatda barmoq vaznining keng qo'llanilishi, nasrda hikoya, qissa va roman janrlarining shakllanishi, publitsistik yo'nalishning rivojlanishi hamda dramaturgiyaning vujudga kelishi jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, jadid ma'rifatparvarlarining milliy adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ularning yangi adabiy janr va shakllarni rivojlantirishdagi faoliyati hamda ijodiy izlanishlari tahlil qilinadi. Jadid adabiyotida ilgari surilgan ma'rifat, milliy uyg'onish, taraqqiyot va ijtimoiy ongni yuksaltirish g'oyalarining adabiy jarayonga ta'siri ochib beriladi. Maqolada jadid adabiyotida shakllangan badiiy-estetik tamoyillarning keyingi davr, xususan, hozirgi o'zbek adabiyotidagi janriy izlanishlarga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida jadid adabiyoti o'zbek milliy adabiyotining yangilanishi va zamonaviy janrlar tizimining shakllanishida muhim adabiy-tarixiy omil bo'lgani asoslab beriladi. **Kalit so'zlar.** jadid adabiyoti, jadid ma'rifatparvarlari, janriy yangiliklar, o'zbek adabiyoti, milliy uyg'onish, nazm, barmoq vazni, nasr, hikoya, qissa, roman, drama, dramaturgiya, publitsistika, adabiy jarayon, badiiy-estetik qarashlar.

### **Kirish**

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yuz bergan yangilanish jarayonlari milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda jamiyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy o'zgarishlar adabiyotning mazmuni va shakliga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillarining ma'rifat, milliy uyg'onish, ilm-fan va taraqqiyotga qaratilgan qarashlari o'zbek adabiyotining yangi yo'nalishda rivojlanishiga zamin yaratdi. Jadid ijodkorlari adabiyot orqali xalqning ma'naviy saviyasini oshirish, milliy o'zlikni anglash va jamiyatdagi muammolarga e'tibor qaratishni asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rdilar. Jadid adabiyoti o'zbek adabiyotining janriy imkoniyatlarini kengaytirishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda an'anaviy adabiy shakllar bilan bir qatorda yangi janr va uslublarga ehtiyoj kuchaydi. She'riyatda xalqona ruhga yaqin bo'lgan barmoq vaznining keng qo'llanilishi, nasrda hikoya, qissa va roman janrlarining rivojlanishi, dramaturgiya va publitsistikaning shakllanishi ana shu jarayonning muhim ko'rinishlari hisoblanadi. Jadid adabiyoti vakillari o'z ijodlarida davrning dolzarb masalalarini yangi badiiy shakllar orqali ifodalashga intildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon kabi ijodkorlarning asarlarida ma'rifat, jaholatga qarshi kurash, milliy taraqqiyot, ozod fikr va ijtimoiy hayot muammolari keng yoritildi. Ayniqsa, drama va publitsistikaga murojaat qilinishi adabiyotning

jamiyat bilan aloqasini yanada kuchaytirdi. Teatr asarlari va publitsistik maqolalar orqali xalq orasida ma'rifiy va ijtimoiy g'oyalarni targ'ib qilish imkoniyati kengaydi. Roman janrining shakllanishi ham o'zbek nasri taraqqiyotidagi muhim hodisalardan biridir. Roman orqali inson taqdiri, jamiyat hayoti va tarixiy jarayonlarni keng ko'lamda tasvirlash imkoniyati paydo bo'ldi. Shu bilan birga, barmoq vaznining rivojlanishi she'riyatning xalqchil va sodda ifoda imkoniyatlarini kuchaytirdi. Jadid adabiyotida boshlangan ushbu janriy va badiiy izlanishlar keyingi davr o'zbek adabiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan turli janrlar, uslubiy izlanishlar va mavzu rang-barangligining tarixiy ildizlarini o'rganishda jadid adabiyoti tajribasi muhim manba hisoblanadi. Shu sababli jadid adabiyotining yangi janrlarning shakllanishidagi o'rini tadqiq etish zamonaviy adabiy jarayonni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi jadid adabiyotida yuzaga kelgan janriy yangiliklarni tahlil qilish, ularning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish hamda ushbu adabiy tajribaning hozirgi o'zbek adabiyotiga ta'sirini yoritishdan iborat.

### **Asosiy qism**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotga kirib kelgan jadidlar va jadidchilik harakati milliy tafakkur taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davr mustamlakachilik zulmi ostida yashayotgan xalqlar uchun nafaqat siyosiy, balki madaniy va ma'naviy uyg'onish davri ham bo'ldi. Ayni tarixiy sharoitda yuzaga kelgan jadid adabiyoti o'zining nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki badiiy uslubi va janriy tizimi bilan avvalgi an'anaviy adabiyotdan tubdan farq qiluvchi yangi bosqich uchun poydevor vazifasini bajardi. Yangi adabiyot vakillari adabiyotni birgina estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyatni isloh etish, xalq ongini uyg'otish, millatni taraqqiyot sari yetaklash barobarida milliy tafakkurni boyitish vositasi deb bildilar. Shu sababli bu davr adabiyotida ijtimoiylik, tanqidiylik va ma'rifatparvarlik bosh mezonga aylandi. Jadid adabiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri uning real hayotni tasvirlashidir. Mumtoz adabiyotda odatda ramziy va tasavvufiy obrazlar birinchi planga ko'tarilgan bo'lsa, jadid adabiyotida ijtimoiy muammolar, xalqning kundalik turmush tarzi va inson taqdiri badiiy tasvir markaziga chiqdi. Bu davr adabiyotida milliy uyg'onish g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi. Jadid ijodkorlari millatni jaholatdan chiqarish, uni zamonaviy ilm-fan bilan qurollantirish zarurligini o'z asarlarida muntazam targ'ib etdilar. Shu jihatdan jadid adabiyoti nafaqat badiiy hodisa, balki ijtimoiy harakat sifatida ham namoyon bo'ldi. Mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti izdan chiqqan, an'anaviy ta'lim tizimi zamon talablariga javob bera olmay qolgan bir davrda jamiyatni yangilash, uni jaholatdan chiqarish zarurati tobora keskinlashdi. Ana shu tarixiy ehtiyoj natijasida jadid namoyondalari ya'ni yangi tipdagi ziyolilar qatlami maydonga chiqdi. Jadid ziyolilari avvalgi an'anaviy ulamolardan farqli ravishda keng dunyoqarashga ega, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirishga intilgan, jamiyat muammolarini tanqidiy tahlil qila oladigan qatlam sifatida shakllandi. Ularning shakllanishida tashqi omillar – Rossiya va Yevropa madaniyati, yangi bilim tizimi, shuningdek, musulmon dunyosidagi islohotchilik harakatlari muhim rol o'ynadi. Jadid namoyondalarining maydonga chiqishida ta'lim sohasidagi inqiroz hal qiluvchi omillardan biri bo'ldi. Eski maktab va madrasalarda o'qitish usullari asosan yodlashga asoslangan bo'lib, u

zamonaviy bilimlarni berishga qodir emas edi. Shu sababli jadidlar “usuli jadid” deb nomlangan yangi o‘qitish tizimini joriy etdilar. Bu maktablarda fonetik usul asosida savod o‘rgatish, dunyoviy fanlarni o‘qitish va bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Jadidlar faoliyati birgina ta’lim bilan cheklanib qolmadi. Ular, shuningdek, matbuot, adabiyot va teatr orqali jamiyatni isloh qilishga kirishdilar. Gazeta va jurnallar orqali ijtimoiy muammolar keng muhokama qilindi va bu nashrlar jadid g‘oyalarini ommalashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Publitsistika orqali ilgari surilgan fikrlar keyinchalik badiiy asarlar, ayniqsa, dramalarda ta’sirchan va obrazli tarzda ifoda etildi. Jadid namoyondalarining maydonga chiqishi natijasida jamiyatda yangicha fikr, yangicha dunyoqarash shakllana boshladi. Ular millat kelajagini ilm-ma’rifat, ijtimoiy islohot, madaniy uyg‘onish va eng avvalo, milliy o‘zlik bilan bog‘ladilar. Shu sababli jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati nafaqat adabiy jarayonni, balki butun ijtimoiy hayotni o‘zgartirishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy harakat sifatida tarixga muxrlandi. Jadid adabiyotining shakllanishida eng muhim jarayonlardan biri janriy tizimning vujudga kelish hodisasidir. Bu davrda adabiyotning an’anaviy ya’ni, eski shakllari bilan bir qatorda yangi janrlar ham faol rivojlana boshladi. Ayniqsa, nazm va nasr bilan bir qatorda publitsistikaning kengayishi, shuningdek, dramaturgiyaning shakllanishi adabiyotning umumiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Jadid ijodkorlari o‘z asarlarida mavjud muammolarni yoritish uchun turli janr imkoniyatlaridan foydalandilar va buning natijasida adabiyotda ko‘p qirrali janriy tizim shakllandi. An’anaviy o‘zbek adabiyoti she’riyatida aruz vazni yetakchilik qilgan bo‘lsa, jadid adabiyoti davriga kelib barmoq vazni ham qo‘llanila boshlandi. Mumtoz davrda hukmron bo‘lgan aruz tizimi murakkab qoidalar asosida qurilgan bo‘lib, u asosan savodli qatlam uchun mo‘ljallangan edi. Jadid adabiyoti esa keng xalq ommasiga murojaat qilishni maqsad qilganligi sababli, ifoda vositalarini soddalashtirish zarurati yuzaga keldi. Mumtoz o‘zbek she’riyati asosan aruz vazniga tayangan bo‘lsa-da, xalq orasida uning tushunilishi va bu yo‘nalishda ijod qilish shoirdan ulkan iste’dod hamda o‘quvchidan chuqur zehn talab etardi. O‘z g‘oya va harakatlarining bosh shiori xalqni savodli qilishdan iborat bo‘lgan jadid ijodkorlari vaziyatga o‘zgartirish kiritish va bu orqali iloji boricha avom xalqqa tushunish oson bo‘lgan yechimlarni topishga harakat qilishdi. Barmoq vazni xalq og‘zaki ijodi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning bo‘g‘inlarga asoslangan tizimi tabiiy va sodda ritmni ta’minlaydi. Shu sababli jadid shoirlari barmoq vaznidan foydalanish orqali adabiy nutqni xalq tiliga yaqinlashtirishga erishdilar. Bu holat adabiyotning ommaviylashuvi va keng kitobxonlar qatlamiga yetib borishida muhim rol o‘ynadi. She’riyatda barmoq vaznining keng qo‘llanilishi xalq tiliga yaqinlashish va adabiyotni ommalashtirish kabi maqsadlarni ko‘zlagan edi. Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat kabi ijodkorlar o‘z she’rlarida barmoq vaznining go‘zal va mazmundor namunalarini yaratishdi. Cho‘lpon esa XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida barmoq vaznini ulkan cho‘qqiga olib chiqdi deb aytish mumkin.

Uning «Ko‘ngil» she’rida keltirilgan:

Tiriksan, o‘lmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsen,  
Kishan kiyma, Bo‘yin egma,  
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!

jumlalarining o'ziyiq har bir o'quvchida kuchli emotsiya qoldirishi bilan birgalikda o'sha davr jadidchilik harakatining maqsad-muddaosini ko'rsatib beradi. Bu kabi mazmunni ifodalash uchun aruz vazni biroz noqulayliklar tug'dirardi. Chunki, aruzda qator talablar mavjudki, ularning har qanday buzilishi vazn talablarini poymol etadi. Barmoqda esa bu talablar nisbatan yengilligi sabab, ijodkor bu qulaylikdan unumli foydalana oladi. Shuningdek, o'quvchining tushunishi darajasi ham aruzga nisbatan salmoqdor. Bir so'z bilan aytganda, she'riyatda aruz bilan bir qatorda barmoq vaznining qo'llanilishi adabiyotning xalqchillashuv jarayonini tezlashtirdi. Jadid adabiyoti nasrda ham muhim janriy va uslubiy yangilanishlarni amalga oshirdi. Xususan, roman, hikoya va publitsistika kabi janrlarning shakllanishi ham bevosita jadidchilik harakati bilan bog'lanadi. Jadid adabiyotida nasr janrining rivojlanishi adabiy tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Mumtoz adabiyotda nasr nisbatan cheklangan bo'lsa, jadid davrida u mustaqil va faol janr sifatida shakllandi. Hikoya va qissa janrlarida real hayot tasviri, ijtimoiy muammolar, inson xarakterining murakkab jihatlarini keng yoritila boshlandi. Nasrning rivoji, ayniqsa, asardagi syujet qurilishi va qahramonlararo konflikt yaratish jarayonining takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ijodkorlar asar voqealarini ketma-ketlik asosida rivojlantirish, obrazlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ochib berish va ularni mantiqiy yakunlash usullarini faol qo'llay boshladilar. Bu esa, ayni vaqtda dramatik tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Dramatik tafakkur – voqealarni qarama-qarshilik asosida ko'ra olish, ziddiyatlarni aniqlash va ularni badiiy yechimga olib chiqish qobiliyati. Nasr janrida aynan shu elementlarning rivojlanishi dramaturgiyaning shakllanishi uchun zarur zamin yaratdi. Shuningdek, nasrda inson ruhiyati va ichki kechinmalarini tasvirlashga qaratilgan dialog, monolog va muallif nutqlariga e'tibor kuchaydi. Natijada bu davr dramatik asarlarida obrazlar oddiy tip shaklida emas, balki murakkab va ichki ziddiyatlarga ega shaxslar sifatida namoyon bo'la boshladi. An'anaviy o'zbek nasri ko'proq tarixiy-didaktik xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, jadid adiblari asarlarida esa realizm, hayotiylik va ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirish tamoyillari birinchi o'ringa ko'tariladi. Bu jarayonda Abdulla Qodiriyning nasrdagi ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning qalamiga mansub "O'tkan kunlar" asari milliy romanchilikdagi dastlabki mukammal asar sifatida e'tirof etiladi. Asarda tarixiy voqelik, ijtimoiy munosabatlar va insoniy tuyg'ularning go'zal namunasi aks etganligi, shu bilan birga inson ruhiyatining chuqur tahlil etilganligi roman talablariga to'lanoliq javob beradi. "O'tkan kunlar" romani bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlarini, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Romandagi uchlik oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir "durri bebaho" ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaiy sahnalar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalanitiradi. Ayni damda o'zining tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik

bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi. Jadid adabiyotining eng faol va ta'sirchan yo'nalishlaridan biri, shubhasiz, publitsistika bo'ldi. Jadid publitsistikasining paydo bo'lishi matbuot rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda gazeta va jurnallar nashr etila boshladi. Dastlabki milliy matbuot namunalari xalq orasida ma'rifat tarqatish, jamiyatdagi muammolarni muhokama qilish va milliy ongni uyg'otish vazifasini bajardi. Ayniqsa, "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Oyna" kabi nashrlar jadid g'oyalarining asosiy targ'ibotchisiga aylandi. Gazeta va jurnallardan jadid ziyolilari o'z g'oyalarini keng ommaga yetkazish quroli sifatida ham foydalandilar. Shuningdek, publitsistikada jamiyatdagi mavjud muammolar ochiq va keskin tarzda muhokama qilina boshladi.

Jadid publitsistikasining rivojlanishida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar muhim rol o'ynadi. Ular matbuot orqali yangi usul maktablarini targ'ib qildilar, ilm-ma'rifatning ahamiyatini tushuntirdilar va millat taraqqiyotini zamonaviy bilim bilan bog'ladilar. Behbudiy publitsistikani jamiyatni isloh qilish vositasi sifatida ko'rgan bo'lsa, Avloniy matbuotni "xalqning ko'zi va qulog'i" deb baholagan.

Jadid publitsistikasi matbuotga til va uslub jihatidan ham yangilik olib keldi. Publitsistik maqolalarda murakkab va balandparvoz uslub o'rnida, sodda va tushunarli ifoda shakli qo'llanila boshlandi. Bu esa matbuotning keng xalq ommasiga yetib borishiga imkon yaratgan muhim omildir. Publitsistikadagi bu yondashuv keyinchalik badiiy adabiyot va dramaturgiyaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Jadid publitsistikasida quyidagi masalalar alohida o'rin egalladi:

- ta'lim tizimini isloh qilish;
- milliy ongni shakllantirish;
- ayollar erkinligi;
- ijtimoiy tengsizlik.

Ayniqsa, ayollar masalasi matbuotda keng yoritildi. Ayollarning savodsiz va erksizligi, ularning ijtimoiy hayotdan chetlatilishi keskin tanqid ostiga olindi. Chunki, jadidlar ayolni jamiyatning muhim qismi sifatida ko'rib, uning erkinligi va ta'limini zarur deb hisoblashardi. Jadid publitsistikasi mazmun jihatidan ijtimoiy yo'nalganligi bilan ajralib turadi. Unda ta'lim tizimidagi kamchiliklar, eski maktab va madrasalarning zamon talablariga javob bermasligi, savodsizlik, ayollar masalasi, milliy taraqqiyot va mustamlakachilik siyosatining salbiy oqibatlari keng yoritildi. Jadid publitsistlari jamiyatdagi mavjud muammolarni ochiq tanqid qilish orqali xalqni uyg'otishga intildilar<sup>1</sup>. Publitsistika dramaturgiyaga g'oyaviy asos yaratdi. Ko'plab dramatik asarlarda ko'tarilgan muammolar avval publitsistik maqolalarda muhokama qilingan edi. Shu sababli dramatik asarlarni publitsistikaning badiiy davomchisi sifatida ham baholash mumkin. Jadid adabiyotida dramaturgiyaning shakllanishi tasodifiy emas, balki tarixiy zarurat natijasi edi. Jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni keng ommaga yetkazish uchun yangi va samarali vosita zarur hisoblanar va buning uchun, teatr ana shunday vosita sifatida tanlangan edi. Teatrning eng asosiy fishkasi shundaki, u tomoshabinga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sahna

orqali ko'rsatilgan voqea-hodisalar o'quvchiga emas, balki tomoshabinga jonli ravishda yetib boradi. Bu esa muammolarni yanada chuqurroq his etish imkonini yaratadi. Ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi, publitsistikaning rivoji, nasrda dramatik tafakkurning shakllanishi, teatr madaniyatining kirib kelishi kabi omillar jadid dramaturgiyasining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Bu omillar dramaturgiyaning mustaqil janr sifatida shakllanishiga va ommalashishiga sabab bo'ldi. Jadid dramaturgiyasi bir qancha o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi va bu xususiyatlar, uning g'oyaviy yo'nalishi va ijtimoiy vazifasi bilan bevosita bog'liqdir. Avvalo, jadid dramalarida ijtimoiy muammolar markaziy o'rinni egallaydi. Asarlarda jamiyatdagi kamchiliklar ochiq ko'rsatiladi va tanqid ostiga olinadi. Ikkinchidan, obrazlarning hayotiyliigi muhim jihatlardan biri sanaladi. Jadid dramaturgiyasida obrazlar real hayotdan olingan bo'lib, ular orqali jamiyatning turli qatlamlari ro'y-rost tasvirlanadi.

Uchinchidan, dialoglarning soddaligi va tabiiyligi asarlarning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, konflikt muhim badiiy vosita sifatida deyarli barcha dramalarda unumli qo'llaniladi. Konflikt orqali eski va yangi qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yanada kuchli ifodalanadi. Bu qarama-qarshilik dramatik kuchni yuzaga keltiradi. Mustamlakachilik sharoitida jamiyatning tuzilmasida ichki ziddiyatlar yanada kuchaydi. Bir tomondan, eski an'anaviy(qotib qolgan) tartiblar diniy qarashlar, patriarxal munosabatlar, qadimiy urf-odatlar hukmronlik qilar, ikkinchi tomondan esa yangi davr ta'siri ostida zamonaviy bilimlar, texnika va taraqqiyotga intilish kuchayib borardi. Bu ikki qarama-qarshi kuch jamiyatda keskin ziddiyatlarni yuzaga keltirdi. Aynan mana shu konflikt jadid dramaturgiyasida asosiy badiiy manba bo'lib xizmat qildi. Chunki dramaturgiya bu, avvalo, qarama-qarshiliklar san'atidir va shu asosda vujudga keladi. Jadid dramaturgiyasi esa ana shu tarixiy ziddiyatlarni sahna orqali ifodalashga va buni ommaga yetkazishga intildi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti o'zbek adabiyotining yangilanishi va yangi janrlarning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Jadid ijodkorlarining barmoq vazni, roman, drama va publitsistika kabi yo'nalishlardagi izlanishlari milliy adabiyotning janriy imkoniyatlarini kengaytirdi. Ularning ma'rifat, milliy uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari keyingi adabiy jarayon rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bois jadid adabiy merosi hozirgi o'zbek adabiyotidagi janriy va badiiy izlanishlarning muhim tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qosimov B. *Jadidchilik va jadid adabiyoti*. – Toshkent: Fan.2004.
2. Karimov N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi.2011.
3. Quronov D. *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Karimov N. *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
5. Karimov N. *Jadid matbuoti tarixi*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Sharafiddinov O. *Adabiyot va davr*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
7. Qosimov B. *Jadidchilik va jadid adabiyoti*. Toshkent: Fan, 2004.